

**MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA REJISSYORLIK SAN'ATI VA
MAHORATI****Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li****Namangan Davlat universiteti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7694413>**

Annotasiya: ushbu maqolada madaniy tadbirlarni tashkil etishda rejissyorlik sa'nati, mahorati va uning vazifalari aks ettirilgan

Kalit so'zlar: rejissura tushunchasi, spektakl, repetitsiya jarayoni, madaniy tadbirlarni rejissurasining o'ziga xosligi, sahnada obraz yaratish tamoyillari, rejissura va aktyorlik san'ati uyg'unligi

Madaniy tadbirlarni tashkil etish bu murakkab san'atning sintezlashuv jarayoni bo'lib, yuksak rejissyorlik san'ati va aktyorlik mahoratini talab etadi. Bu o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash muammosidir. Chunki, yuqorida aytganimizdek, an'anaviy teatrdagi rejissyor ko'p narsalarga to'qnash kelmaydi. VI. I. Nemirovich-Danchenkoning rejissyorlik faoliyatidagi uch qirrasini haqidagi ta'limotidagi "rejissyor - tashkilotchi" qirrasini ommaviy tadbirda boshqaqirralaridan ko'ra asosliroq hisoblanadi. Chunki, u mutaxassis bo'lmagan odamlar va texnikaning barcha turlari bilan yaxshi yo'lga qo'yilmagan boshqaruv va sahnalashtiruvchilar guruhi, repetitsiyalarning kamligi, yanglishishga huquqi yo'qligi kabi sharoitlarda ishlaydi. Armiyada "Sapyor faqat bir marta adashadi" degan matal bor. Ommaviy tadbirni sahnalashtiruvchi rejissyorning vazifasi ham jangga tayyorlanish usuli kabi bo'lib, ularda umumiy o'xshashlik bor. Hatto "shtab", "kolonna boshlig'i", "joy rejasi", "vazifa", "front bo'yicha qayta saflanish" va boshqa terminlar hamharbiylardan ijaraga olingan, soldat va bir butun bo'linmalarning ishtirokini aytmasa ham bo'ladi.

«Rejissyor» tushunchasi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, boshqaruvchi degan ma'noni bildiradi. SHuni ta'kidlash kerakki, «rejissyor» so'zi O'zbekistonga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kirib kelgan. Lekin bu bilan, qadimiy o'zbek xalq tomoshalari va bayramlarini tashkilotchisi, ya'ni rejissyori bo'lmagan, deyish albatta xato bo'lur edi. O'zbek madaniyatiga «rejissyor» tushunchasi kirib kelgunga qadar «korfarmon» degan so'z ishlatilgan.

«Korfarmon» so'zining ma'nosi ishga farmon beruvchi, ya'ni ishboshi demakdir. Darhaqiqat, «korfarmon – bu o'ziga xos ishboshi - administrator, rejissyor, muallim, o'yin boshidir», - deb yozadi professor Muhsin Qodirov.

Bugungi kunda rejissyor tushunchasi barcha xalqlar madaniyatida ishlatilganidek, jumladan, o'zbek san'atida ham keng qo'llanmoqda. «Korfarmon» so'zi esa ko'proq an'anaviy o'zbek tomoshalariga nisbatan ishlatilmoqda.

Hozirgi paytgacha rejissyor deganda ko'proq, teatr va kino san'atida badiiy asarni (p'esani, kinostsenariyni) sahnalashtiruvchi, erkinlashtiruvchi ijodkor tushuniladi.

Keyingi vaqtlarda, radio va televideniya rejissyor mutaxassisligi vujudga kelishi bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy muassasalarda ommaviy tadbirlarni tashkil qiluvchi rejissyor ham shakllanmoqda. Badiiy-ommaviy tadbirlar rejissyori deganda, muhim sana va voqealarga bag'ishlab yozilgan senariyni mahalliy sharoitda badiiy-hujjatli qonuniyatlar asosida, maxsus ish shakllarida amaliy uyushtiradigan ijodkor tushuniladi.

Ommaviy tadbir rejissyori real hayotning muhim, diqqatga sazovor daqiqalarini (maxsus

stsenariy asosida) madaniylashtiradi, badiiy bezaydi va maxsus tadbir sifatida shakllantiradi. Rejissyor – tashkilotchi. Madaniy-maʼrifiy xodimda tashkilotchilik layoqati boʻlmasa, undan yaxshi mutaxassis chiqishi qiyin. Agar ommaviy ishlar rejissyorida tashkilotchilik qobiliyati boʻlmasa, hech qachon yaxshi tomosha, yaʼni tadbir uyushtira olmaydi.

Ommaviy tadbirlar rejissyori uchun tashkilotchilik qobiliyati eng asosiy fazilat hisoblanadi. Chunki sanʼat muassasalaridagi professional rejissyorlarga qaraganda murakkab sharoitda, maxsus malakaga ega boʻlmagan havaskorlar bilan ish olib boradi.

Badiiy-ommaviy tadbirlar rejissyoridagi tashkilotchilik qobiliyatining administrativlik va boshqaruvchilikdan iborat ikki tomoni, ayniqsa kuchli namoyon boʻlishi kerak.

Rejissyor tadbirning tashkilotchi administratori sifatida juda koʻp ishlarni bajaradi. Agar professional teatr, kinostudiya, televideniya va radioda administrativ (maʼmuriy) ishlarni maxsus tayinlangan kishilar olib borishsa, madaniy-maʼrifiy muassasalarda esa ommaviy tadbir rejissyori ular bajaradigan fazilatlarni oʻz zimmasiga oladi.

Sanʼat muassasalarida mavjud boʻlgan maxsus professional ijodiy grupp (kollektiv), maxsus badiiy va texnik vositalar, fonotekalar, ovoz yozish va nurli apparatlarga ega boʻlgan tseklar, butafor, rekvizit, kostyumerlar, dekoratsiya tayyorlanadigan ustaxonalarga klub va parklar ega boʻlmaydi.

Ommaviy tadbirlar rejissyori vujudga kelishi mumkin boʻlgan barcha muammolarni yechish uchun yoʻl-yoʻriq topa bilishi kerak. U lozim boʻlsa, havaskorlar tadbirda qatnashishi uchun barcha sharoitni tayyorlashi, texnik apparatlarni axtarishi, badiiy ustaxonalar bilan shartnoma tuzib, dekoratsiya, butaforiyani hozirlashi, kostyumlarni topishi va koʻplab shunga oʻxshash ishlarni amalga oshirishi lozim.

Albatta, bunday sharoitda tadbirni tayyorlash va mavjud muammolarni bartaraf qilish uchun rejissyorda administrativ qobiliyat nihoyatda kuchli boʻlmogʻi lozim. Aks holda, tadbir tashkilotchisi yaxshi natijalarga erisha olmaydi.

Tadbir tayyorlash jarayonida rejissyorning boshqaruvchilik layoqati alohida oʻrin tutadi. Chunki tadbir odamlarning ishtiroki bilan (ularsiz mumkin emas) vujudga keladi va odamlar uchun tayyorlanadi. Agar rassom boʻyoq, xolst va polotno bilan, arxitektor har xil granit toshlar va choʻkich bilan, yozuvchi soʻzlar bilan, kompozitor ohang va notalar bilan ijod qilsa, tadbir rejissyori kishilar bilan va ularning yordamida badiiy tomoshaviy shakl yaratadi.

Rejissyor tadbir tayyorlash uchun havaskorlardan tashkil topgan kollektivni, yaʼni yaxlit bir ansamblni vujudga keltirib, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochishi va yuzaga chiqarishi lozim. Tadbirning maqsadi va mavzusi atrofida rejissyor butun kollektivning faoliyatini va jumladan, har bir havaskorning ijodini toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirmogʻi hamda bu jarayonni boshqarmogʻi lozim. Faqat kollektivning faoliyati maqsadga muvofiq samarali boshqarilgandagina yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Shunday qilib, ommaviy tadbir rejissyori, eng avvalo, boshqaruvchilik qobiliyatiga, administrativ ishlar olib borish layoqatiga ega boʻlgan tashkilotchi kishi boʻlmogʻi lozim.

Rejissyor – bosh ijodkor. Agar senarist tadbirning skeletini yaratsa, rejissyor uning amaliy koʻrinish shaklini vujudga keltiradi. Agar stsenariy avtorining ishini arxitektorning loyihasiga oʻxshatsak, rejissyorning ijodini injenerning faoliyatiga qiyoslasa boʻladi. Injener loyiha asosida bino qursa, rejissyor senariy asosida tadbir tayyorlaydi. Rejissyor tadbirga jon kiritadigan ijodkor shaxsdir.

Ommaviy tadbirlar rejissyori ijodining asosiy xususiyati shundaki, u real hayotning muhim lahzalarini tadbir sifatida shakllantiradi. Rejissyor, faqat kutilmagan hodisa ro'y berib, yakkaboshchilik zarur bo'lganida yoki o'zi epizod sahnalashtirilayotgan bo'lsa, repetitsiyalarga aralashish huquqiga egadir. Bosh rejissyor diplomat va psixolog, pedagog va boshqaruvchi bo'lishi kerak. U xodimlarni to'g'ri tanlay bilishi va ularni imkoniyatlari yetadigan ishlarga jalb etishi, bo'laklardan yaxlit narsa yaratishni bilishi kerak. Zarur bo'lsa, qattiqqo'l bo'lishi, umumiy ish uchun ba'zida yaxshi narsalardan voz kechishni bilishi zarur. Berilgan aniq vaziyatda nima asosiy, nima birinchi, qay bittasi ikkinchi darajali ekanligini aniq belgilashi, ya'ni ustunlik sistemasini tuzib chiqishi kerak. U har doim hayotbaxsh (optimistik) kayfiyatda bo'lishi, har qanday sharoitda ham yumorga moyilligini yo'qotmasligi zarur. Nihoyat, eng asosiysi, yuzlab, minglab odamlarni o'ziga bo'ysundira oladigan, irodasi kuchli odam bo'lishi zarur. Buningsiz ommaviy teatrlashtirilgan tadbir yuzaga kelmaydi. Agar bosh rejissyor repetitsiyada xotirjam, fikru xayoli bir yerga to'plangan, ishni hammadan ko'ra yaxshi tushunadigan odamdek ko'rinsa, barcha ham xotirjam va jiddiy ishlay boshlaydi. Bu, bizningcha, rejissyordagi tug'ma xislatdir.

Mashhur bastakor M. Ashrafiy muxbirning: "Dirijyorcha tug'ma talant bo'ladimi?" - degan savoliga "Talent, bu haddan tashqari (juda ham) o'ziga xoslikka ega... Uning o'ziga xos xususiyatlari, bu o'z niyatini orkestr jamoasiga yetkazishga intilish, u yoki bu musiqachining sermahsul ishga imkoniyatlarini aniqtopishga qobiliyat va shundan kelib chiqib, repetitsiya jarayonini real rejalashtirish, tasavvur etilgan ideal (yuksak) darajadagi niyatni (mo'ljalni) maksimal yaqinlashtirishga qobiliyat va aniq ijro etish natijasi...", deb javob bergan.

O'ylaymizki, buyuk kompozitorning bu fikrlari tamomila va batamom bosh rejissyorning faoliyatiga ham taalluqlidir. Iste'dodli o'zbek rejissyori M. Uyg'ur: "Rejissyordagi asosiy fazilat, bu - irodadir", deb bejiz takrorlashni xush ko'rmagan. Ommaviy tadbirda bu xislat eng asosiy fazilat hisoblanadi.

References:

1. Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. - Toshkent:Cho'lpon. 2007.
2. Muhamedov M.Rejissura asoslari.Toshkent:O'DSI bosmaxonasi,2008.
3. Mamatqosimov J. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. U.Qoraboyev – Badiiy ommaviy tadbirlar T-o'qituvchi
5. Rustamov V. Senariynavislik mahorati. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.
6. B. Sayfullayev, V.Rustamov, B.Innatullayev Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati – Namangan 2021
7. www.ziynet.uz
8. www.google.ru
9. www.fikr.uz